

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ESTETIK TARBIYA VOSITALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Axmadiyev N.M.

“Sport psixologiyasi, ijtimoiy tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d (PhD), Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali

Axmadiyeva Y.

Xirurgiya kafedrasi o'qituvchisi RO'TFXMOIMFF

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaning shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, uning ma’naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy, umuman olganda, estetik rivojlanishiga muntazam ta’sir etib boruvchi uzlucksiz jarayon ekanligi o’rganilgan. Estetik tarbiyaning yoshlar kamolotidagi o’rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya va shaxs, estetik taraqqiyot, yoshlar va ma’naviy yuksalish, oila, mahalla va ta’lim maskani uzviyiligi, go‘zallik va ulug‘vorlik.

Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan jarayonda assosiy maqsad insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolishdan iborat. Shu bilan bir qatorda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, ularni ma’rifat va madaniyat sari yetaklash ham dolzarb masala bulib turibdi. Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Chunki jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasiga bog‘liq. Ma’lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma’naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy, umuman olganda estetik rivojlanishiga muntazam ta’sir etib boruvchi uzlucksiz jarayon. Endilikdagi assosiy vazifa ana shu yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, ularning kuch va sadokatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yulida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko‘pgina davlatlari qatori O‘zbekiston Respublikasi hukumatining olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko‘lamida payqash qiyin emas. Hozirda jamiyatimizning 64% dan ortig‘ini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan tarixiy jarayonlarning barcha sohalarida adolatli, ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom, an’analarga hurmat bilan yondashuvchi, yangicha ma’naviy tafakkur egasi bo‘lishga harakat qilmoqda.

Mamlakatimiz «Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e’tibor qilinmasa, kelajak boy beradi». Tarbiya inson tug‘ilganidan boshlanadi va umrining oxirigacha davom etadi. Buyuk mutafakkirlarimiz ta’kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda, oila birinchi o‘rinda turadi. Oila – assosiy tarbiyaning o‘chog‘idir. Oila - har bir halqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning assosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ma’naviy, moddiy tarbiyasida assosiy omil va vosita oila hisoblanadi. Bunda ota-onha san’atkor, bola esa san’at asari, tarbiya esa san’atning uzidir. Oiladagi sog‘lom muhitni yaratish – ham ota, ham onaga bog‘liq. Ba’zan jahl

chiqanda bir-birini tushunish va e'zozlash, bir-biriga ishonch, mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, farzand tarbiyasida bir hilda ma'sullik ota-onaning oiladagi burchidir.

Farzand tarbiyasi haqida Fitratning «Oila» asarida «Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu halqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi», - deb yozadi. Oilada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy muhit sog'lom bo'lsa, bolaning ongi yaxshilik, mehr-oqibat, or-nomus, samimiyat, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi muqaddas tushunchalarni qamrab oladi. A. Avloniy: «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidir» deb katta baho beradi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'analariga sodiq bo'lib barkamol bo'lishsin. Farzand tarbiyasi juda murakkab va mas'uliyatlari vazifa. Bu vazifa yurt taraqqiyoti, mamlakat kelajagiga daxldor ekanini sira yoddan chiqarmaslik kerak.

Estetik tarbiyaning chinakam vazifasi estetik tuyg'u va estetik didning inson barcha faoliyatlarida ustuvor bo'lishini ta'min etishdir. Shuning uchun ham estetik tarbiya o'z vazifasini to'laqonli ravishda insoniy munosabatlarga, uning imkoniyatlariga singdirib borgandagina yakun topadi. Zero, bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligiga katta e'tibor qaratilayotganligi shundan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtaida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Chunki, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi.

Xususan, birinchi tashabbus bo'yicha yoshlarni san'at va madaniyat maskanlariga keng jalb etish, o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan Dastur loyihasiga ko'ra, 2019-2020 yillarda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafardan ziyod yoshlarni madaniyat va san'at sohasiga jalb etish to'g'risida «yo'l xarita»larini tasdiqlash ko'zda tutilgani muhim ahamiyatga ega. Dastur loyihasiga ko'ra, endilikda san'atga qiziquvchi yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi: musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida turli xil havaskorlik to'garaklari, teatr jamoalarari, bolalar ansambllarini tashkil etish orqali yoshlarni san'at va madaniyat sohasga qiziqtirish ko'zda tutilgan.

Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan. O'zbekiston mustaqil davlati fuqarolarining estetik ongini yanada shakllantirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, jamiyat madaniyatini yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyatdir. Busiz inson bilish ko'laming vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o'stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin. San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Insonga har tomonlama tarbiya berish oila va ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi bo'lgani kabi, maktabgacha

ta'lim muassasalarida, maktablarda, kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, nodavlat ta'lim-tarbiya tashkilotlarida rejaga muvofiq ravishda turli-tuman madaniy-ma'rifiy tadbirlar, rang-barang ko'rik-tanlovlardan san'at bayramlari va festivallarini o'tkazilishi o'z navbatida yosh avlodni estetik tafakkurini yuksaltiradi. San'at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo'lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vositadir. San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi. Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi, bu elektron axborot vositalardir. Bu borada- «Yuksakma'naviyat – yengilmas kuch» asarida qayd etib o'tilganidek, "Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda".

Mahalla - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta'siri nihoyatda katta. Mahalla jamiyatichidagi kichkina jamiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini oshiruvchi makondir. Chunonchi mahalla:

- o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkaligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlashi bilan;
- turmush nafosati va muomala estetikani shakllantirib, insonlar qalbida ijo-biy tuyg'ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi bilan;
- mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi hamda qo'shnichilik madaniyatini kamol toptirishi bilan;
- isrofgarchilikka, dabdababozlikka yo'l qo'yagan holda urf-odatlar, an'analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroqli o'tishini ta'minlashi va shu kabilar bilan inson estetika tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onasiga, mahalla, o'quv muassasalri juda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Zero, bugungi kunning talabi ana shundan iborat. Mazkur talabga javob berish esa insondan har tomonlama tarbiyalanganlikni talab qiladi. Tarbiyaning estetik shakli esa mazkur jarayonlarda insonni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyatga bo'lgan qarashlarini go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiya qilishi bilan diqqatga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mukhutdinovich, A. N. (2022). In Matters of Spiritual and Moral Education of Children in the Family, the Alienation of Youth to the Older Generation. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(7), 24-26.
2. Mukhutdinovich, A. N. (2022). Intellectual Culture in Increasing the Innovative Activity of Young People-An Important Criterion. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(7), 134-136.
3. Ahmadiev, N. M. (2020). SPIRITUAL AND MORAL UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE IS A FACTOR OF GREAT PROSPECTS. In PEDAGOGIKA. PROBLEMI, PERSPEKTIVI, INNOVATSII (pp. 3-6).
4. Akhmadiev, N. (2019). Factors of raising the level of spiritual and social activity in the youth. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 134-140.
5. Akhmadiev, N. M. (2019). ISLAMIC SPIRITUAL PROSPERITY OF YOUTH IN RELIGIOUS EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 234-236.

Akhmadiev, N. M. (2019). ISLAMIC SPIRITUAL PROSPERITY OF YOUTH IN RELIGIOUS EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 234-236.

6. Ahmadiев, N. M., & Juraev, I. M. (2019). Family reading-a leading factor in the promotion of youth moral education. Nauchniye issledovaniya v Kirgizskoy Respublike, (3), 24-27.

7. Axmadiyev, N. M. "PAVLONIYA-MO'JIZAVIY DARAXT." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 15 (2023): 460-464.

8. Nuriddin M. Akhmadiev. FACTORS FOR THE HEALTH OF THE SPIRITUAL MORAL WORLD OF THE YOUNGER GENERATION. Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022: 5.908